

**SHUKUR XOLMIRZAYEV IJODIDA DETALNING O’RNI**

***Shaxnoza Sultonqulova***

*Termiz davlat pedagogika instituti 2-bosqich magistranti*

**Annotatsiya :** Ushbu maqolada adib Shukur Xolmirzayev ijodida badiiy detalning o’rni va ahamiyati ilmiy tahlil etiladi. Yozuvchi ijodida yetakchi bo’lgan peyzaj detalning qo’llanilishi uning hikoyalari misolida o’rganiladi.

**Kalit so’zlar:** badiiy detal, obraz, tabiat, peyzaj detal, poetik uslub

**Annotation:** In this article, the role and importance of artistic detail in the work of writer Shukur Kholmirzayev is scientifically analyzed. The use of landscape detail, which is the leader in the writer's work, is studied on the example of his stories.

**Key words:** artistic detail, image, nature, landscape detail, poetic style

Shukur Xolmirzayev adabiyotning turli janrlarida rang-barang hikoyalari, publitsistik maqolalari, tarixiy esselari, realistik qissalari-yu ajoyib romanlari bilan hozirgi davr adabiyotida munosib o’rin egallagan yirik yozuvchilarimizdandir. Ayniqsa, adib Abdulla Qahhordan keyin o’zbek nasrini hikoya janridagi asarlar bilan boyitishga ulkan hissa qo’shdi.

Shukur Xolmirzayevning adabiyotdagagi o’rni salobatli va jozibador hikoyalari bilan belgilanadi. Adib o’z hikoyalarida Boysun manzaralarini, Surxonning viqori ruhini olib kirdi. Uning xizmati tufayli o’zbek adabiyotida Surxon mavzusi, fidokor va zahmatkash Surxon odamlari paydo bo’ldi. Chunki uning asarlaridagi qahramonlar o`zligini yo`qotgan rahbar xodimlari yoki yo`ldan adashgan yoshlar, oddiy qishloq kishilari sodda va qalbi pok, o’zbek xalqi misolida aks ettirilib, asar g`oyasiga ko`ra yozuvchi bu qahramonlar taqdiri orqali o`zining mavjud davr va hayot haqiqatlariga munosabat bildirdi. Shuni alohida ta`kidlash kerakki, Sh.Xolmirzayev adabiyotga, xususan, o’zbek nasriga juda katta yangi-yangi tamoyillarni olib kirdi. Shu bois ham yozuvchi hikoyalarida tabiat va uning unsurlari badiiy detal vazifasini bajaradi.

Ma’lumki, badiiy asar syujetiga aloqador eng kichik (aslida eng katta) muammolardan biri – badiiy detal va tafsilotlardir. Adabiyotshunos olim Dilmurod Quronovning fikricha: “... Detal asarda tasvirlangan obrazning kichik bir qismi (ya’ni, u hamisha predmetilikni ko’zda tutadi), detallarning birikuvi natijasida o’sha obraz ko’z oldimizda butun holda namoyon bo’ladi. Badiiy detalning ortida ma’lum bir realiya mavjud: maishiy turmush yoki joy tafsilotlari, portret chizgilari va sh.k. Shuningdek, personajning imo-ishoralari (jest), tana holati (poza), xatti-harakati, gapso’zlari ham detal sanaladi, ular hammasi birgalikda konkret inson obrazini gavdalantiradi”[1].

Badiiy asarda, odatda, rang-barang detallar qo'llaniladi: predmet detal, ruhiyat detallari, portret detal, nutqiy detal[2].

Shukur Xolmirzayev asarlari xususan, hikoyalarining badiiy-uslubiy o`ziga xosligini tabiat tasviri, peyzaj detallar ta'minlaydi. Yozuvchining qahramonlari o`z hayotlarini tabiat bilan uyg`unlikda bilib, tabiatni asrab avaylash uchun jon dili bilan kurashadi. Bularning bari adibning hayotiy va ijodiy salohiyatining yuksak ekanligining o`ziga xos belgisidir.

Peyzaj ham badiiy obraz sifatida murakkab taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan. Zamonaviy ma'nodagi peyzaj voqelikning ob'ektiv real tasviri sifatida XVIII asrgacha adabiyotda mavjud emas edi.

Peyzajning kashf etilishi insonning koinotdag'i yangi mavqeini ro'yobga chiqarish bilan bog'liq bo'lib, unga kiritilgan. Adabiy jarayonning rivojlanishi bilan yozuvchilar tabiat rasmlariga ko'proq e'tibor berishni boshladilar va manzara roman yoki hikoyadagi boshqa shaxslar bilan tenglashtirila boshladi. O'shandan beri asarda peyzajning mavjudligi yoki yo'qligi e'tibordan chetda qolmadi. So'z san'atkorlari tabiatni yaxshiroq ko'rish, eshitish va anglashni, u orqali o'z his-tuyg'ularini, kayfiyatlarini aks ettirishni o'rgandilar. Tabiat tasvirlarida yozuvchi ona yurt tuyg'usini, o'z xalqining ruhini, vatanparvarlik, mualliflik pozitsiyasini ifodalay olgan. Tabiat go'zalligi bilan solishtirganda qahramonlar xarakteri, fikr-mulohazalari, xatti-harakatlari yanada yorqinroq namoyon bo'ladi. Inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlar san'at, falsafa va estetikaning diqqat markaziga aylandi.

Shukur Xolmirzayevning badiiy nasridagi tabiat mavzusi keng adabiy materialda tizimli ravishda o'rganib kelinmoqda. Adabiyotshunos olim Yo'ldosh Solijonovning "Detallar tilga kirganda" maqolasini ko'rishimiz mumkin. Bu maqolada yozuvchi asarlarning kuchli vizual tomoni va yozuvchi matnlaridagi detalning alohida roli haqida shunday fikrlar aytildi: "Shukur Xolmirzayevning asarlarida eng ko'p qo'llaniladigan detallar bu — tabiat unsurlari: turli daraxtlar, o't-o'lanlar, gullar, qushlar, hashoratlar va hayvonlardir. Ularni inson obraziga nisbat berish bilan adib tabiat va odamning yaqinligini, biri ikkinchisiz yashay olmasligini uqtirmoqchi bo'ladi. Ayni chog'da tabiat hodisalaridagi o'zgarishlarga, ularning o'ziga xosligi (masalan, yarmi qurigan do'lananing hamon gullab, meva tugishi, gap tomirning chuqur ketganligi, ya'ni mohiyatda ekani)ga urg'u berish orqali odamni o'z hayotiga e'tiborliroq bo'lishga undaydi. Ha, Shukurning asarlarida tabiat gapiradi, harakat qiladi, ko'rkini namoyish etish uchun quturib gullab, bizni maftun etadi. Ruhiyatimizga osoyishtalik bag'ishlab, umrimizni uzaytiradi." [3]

Darhaqiqat, adib asosan hikoyalarida tabiatdagi unsurlaridan tortib, ko'z ilg'amas go'zal, eng kichik mavjudotlardan badiiy detal sifatida foydalanadi. Bu esa har bir o'quvchida makon va vaqt, qahramon ruhiy holati va asar voqealarini tasavvurida jonlantirish bilan birga hissiy-emissional ta'sirlanishga xizmat qiladi.

Adibning “Boychechak ochildi” hikoyasida Qo’ng’irot domlaning shahar hayotidan ko’ngli siqilib, o’z ona qishlog’iga bahor faslida borishi, unda birgina bahorning ilk guli boychechakni ko’rib, bolalarcha tog’ bag’ridan uni izlashi, qalbida bahor kabi jonlanish, yasharish boshlangani nihoyatda ta’sirchan tasvirlanadi.

Shuningdek, adibning “Yovvoyi gul” hikoyasida tog’ guli “kiyik o’t”(andiz) qahramon taqdiriga mos tanlangan tabiat unsuri hamda uning ruhiy holatini ohib beruvchi detal sifatida ishlatalgan. Hikoya qahramoni Vosit qishloqdan shaharda o’qib, ishlab, ijarada yashab yuradigan yosh yigit. Qancha yaqinlari qistamasin shahardan qaytmaydi. Hattoki, shahar havosi yomon ta’sir qila boshlagan, og’ir xastalikka duch kelgan bo’lsa-da, u shahardagi ishini tashlab ketgisi kelmaydi. Ammo ishxonadagilari bilan Oyna toqqa lola sayriga chiqqanda tog’ guli andizni uchratishi – Vositning ruhiyatiga katta ta’sir qiladi. Chunki u gulni uzib, o’zi bilan birga olib keladi va ijara egasi Navoxon ayaga gulni ko’rsatib, uni gulzoriga ekib qo’yadi. “Bir kuni kiyiko’tdan xabar oldi-yu, xafa bo’lib ketdi. Pushtaga ekilgan o’tga suv yetmas, uning yaproqlari hamon ko’k bo’lsa-da, qovjiray boshlagan edi... Kiyiko’t cho’p bo’lib qolgan edi. Uning tomirini kavlab ko’rgisi keldi, biroq, buni orqaga surib, uning boshiga cho’nqaydi. Shunda birdan ko’ngli buzilib, shu o’t o’sgan adirni esladi va beixtiyor kuyundi: “Nimaga buni shu adirdan olib keldim. O’sha yerda o’saversa, qurimasdi”, deb o’yladi. Shunda birdan nimagadir o’zi haqida o’ylab qoldi va zo’r taajjub bilan o’zini shu gulga o’xshatdi”[4]. Yozuvchi mahorat bilan qahramon ruhiy dunyosini yorittishda tabiat manzaralari, undagi oddiy unsurlardan badiiy detal sifatida foydalangan.

Xulosa qilib aytganda, adib Shukur Xomirzayevning hikoyalarida tabiat va inson tasviri yetakchi bo’lib, yozuvchi qahramon ruhiyatini yoritishda badiiy detal sifatida tabiat unsurlaridan keng foydalanadi. Uning asarlari xalqimiz badiiy madaniyatini yuksaltirishda va ma’naviy ehtiyojini qondirishda o’ziga xos vazifani o’taydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:**

1. Quronov D. “Adabiyotshunoslikka kirish”. – Toshkent: Meros, 2004. – B. 76-77.
2. Boboyev T. “Adabiyotshunoslik asoslari”. – Toshkent: O’zbekiston, 2002. – B. 75.
3. Solijonov Y. “Detallar tilga kirganda”- “O’zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasi, 2007 yil, №5.
4. Xolmirzayev Sh. Saylanma./ “Boychechak ochildi”. I.J. – Toshkent: “Sharq”, 2005. – B.72.
5. Xolmirzayev Sh. “Olis yulduzlar ostida”. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1971. – B. 67.